



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 15 mart

№ 1779

Sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlarda sudyalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri Sudyalar oliv kengashi raisiga onlayn platforma orqali murojaat qilish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi PF-11-sod Farmoniga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. "Sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlarda sudyalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri Sudyalar oliv kengashi raisiga onlayn platforma orqali murojaat qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Sudyalar oliv kengashining Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyani oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasi (T.Buvayev) sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlar yuzasidan onlayn platformaga kelib tushgan murojaatlarni sinchkovlik bilan o'rganib, tahlilini qilib borsin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Sudyalar oliv kengashi raisining o'rribosari A.Jalilov zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sudyalar
oliv kengashi raisi



X.Yodgorov

O‘zbekiston Respublikasi
Sudyalar oliv kengashining
2023 yil 15 martdagi 1779-sonli
qaroriga ilova

**Sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlarda
sudyalar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sudyalar oliv kengashi raisiga
onlayn platforma orqali murojaat qilish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlarda sudyalar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sudyalar oliv kengashi (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) raisiga onlayn platforma orqali murojaat qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

sudyalar daxlsizligi – O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 64-66-moddalari hamda Jinoyat kodeksining 236-moddasida belgilangan sudyalar mustaqilligining kafolatlari;

murojaat qiluvchi – murojaat qilingan vaqtida qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxs (sudya yoki xalq maslahatchisi);

murojaat – sudyaning daxlsizligi buzilganligi holatlari shu sudya tomonidan bayon etilgan yozma hujjat;

onlayn platforma – Internet tarmog‘idagi <https://sudyalaroliykengashi.uz> manzilida joylashgan Kengashning rasmiy veb-sayti;

moderator – Kengashning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yetakchi inspektori.

2-bob. Murojaat qilish huquqi kafolatlari

3. Sudya yoki xalq maslahatchisi o‘zining daxlsizligi buzilgan holatlarda Kengash raisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn platforma orqali ixtiyoriy ravishda murojaat qilishi mumkin.

4. Murojaat qiluvchini murojaat qilinishi munosabati bilan ta’qib etish taqiqlanadi.

5. Murojaat qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishi shart, bundan ushbu Nizomning 8-bandida nazarda tutilgan hollar mustasno.

3-bob. Murojaat qilish tartibi

6. Murojaat qiluvchi o‘zining daxlsizligi buzilgan holatlar bayon etilgan hamda tegishli chora ko‘rish so‘ralgan yozma arizasini onlayn platformaga yuklash hamda o‘zining shaxsiga oid ma’lumotlarni kiritish orqali Kengash raisiga murojaat qiladi.

7. Onlayn platformaga murojaat qiluvchining ismi, familiyasi va otasining ismi, shuningdek, bog‘lanish uchun telefon raqami kiritiladi.

8. Faqat daxlsizligi buzilgan sudya yoki xalq maslahatchisi onlayn platforma orqali ushbu Nizomga muvofiq murojaat qilishlari mumkin. Boshqa mazmundagi murojaatlar onlayn platforma orqali qabul qilinmaydi va moderator tomonidan o‘chiriladi.

4-bob. Murojaatni ko‘rib chiqish tartibi

9. Onlayn platforma orqali kelib tushgan murojaatni moderator qabul qilib oladi hamda Kengashning devonxona mudiriga elektron shaklda darhol yuboradi.

10. Kengashning devonxona mudiri murojaatni darhol ro‘yxatdan o‘tkazib Kengash raisiga kiritadi.

11. Kengash raisi murojaatni ko‘rib chiqish uchun Sudyalar daxlsizligini ta’minalash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi (bundan buyon matnda Sud inspeksiyasi deb yuritiladi) rahbariga o‘tkazadi.

12. Sud inspeksiyasi murojaatni 10 kunlik muddatda o‘rganib chiqadi.

13. O‘rganish natijasida sudyaning yoki xalq maslahatchisining daxlsizligi buzilganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar aniqlanganda holat yuzasidan qonuniy chora ko‘rishlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdimnomma kiritiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

14. Ushbu Nizom talablarining ijrosini nazorat qilish Sud inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

15. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar tegishli tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladi.